



**INNOVATIVE WORLD**  
Ilmiy tadqiqotlar markazi



**TADQIQOTLAR**



**ILM-FAN**



**TEKNOLOGIYALAR**

# ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR NAZARIYASI

## ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

**2026**



Google Scholar



zenodo



Andijan, Uzbekistan



+998335668868



<https://innoworld.net>



« ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSIYALAR  
NAZARIYASI » NOMLI ILMIY, MASOFAVIY,  
ONLAYN KONFERENSIYASI TO'PLAMI

3-JILD 5-SON

Konferensiya to'plami va tezislari quyidagi xalqaro  
ilmiy bazalarda indexlanadi

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

O'ZBEKISTON-2026

## TASHKILOTLARARO HAMKORLIK

O`ktamova Viloyat Xamid qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti  
Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida sotsiologiya yo'nalishi talabasi

[oktamovaviloyat@gmail.com](mailto:oktamovaviloyat@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari va hamkorligi tahlil qilinadi. Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekistonning xalqaro maydondagi faoliyati va diplomatik siyosati yangi bosqichga ko'tarildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Shanxay Hamkorlik Tashkiloti (ShHT), Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT), Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (YXHT) kabi nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlik orqali mamlakat xalqaro barqarorlik va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga hissa qo'shmoqda. Maqolada O'zbekistonning global masalalar, jumladan, ekologiya, inson huquqlari, iqtisodiy hamkorlik va ta'lim sohalarida xalqaro tashkilotlar bilan amalga oshirayotgan loyihalari yoritilgan. Xususan, Orol dengizini tiklash bo'yicha xalqaro tashabbuslari va Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi hamkorlikning mustahkamlanishiga qaratilgan sa'y-harakatlari muhim o'rin tutadi.

**Tayanch so'zlar:** tashkilotlararo hamkorlik, memorandum, strategik sheriklik, resurslar integratsiyasi, samaradorlik, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

## МЕЖОРГАНИЗАЦИОННОЕ СОТРУДНИЧЕСТВО

**Аннотация.** В данной статье анализируются отношения и сотрудничество Республики Узбекистан с международными организациями. После обретения независимости деятельность Узбекистана на международной арене и его дипломатическая политика вышли на новый уровень. Благодаря сотрудничеству с такими влиятельными организациями, как Организация Объединенных Наций (ООН), Шанхайская организация сотрудничества (ШОС), Организация исламского сотрудничества (ОИС) и Организация по безопасности и сотрудничеству в Европе (ОБСЕ), страна вносит вклад в обеспечение международной стабильности и региональной безопасности. В статье рассматриваются проекты Узбекистана с международными организациями по глобальным вопросам, включая экологию, права человека, экономическое сотрудничество и образование. В частности, важную роль играют международные инициативы по восстановлению Аральского моря и усилия по укреплению сотрудничества между странами Центральной Азии.

**Ключевые слова:** межорганизационное сотрудничество, memorandum, стратегическое партнерство, интеграция ресурсов, эффективность, социально-экономическое развитие.

## INTER-ORGANIZATIONAL COOPERATION

**Abstract.** This article analyzes the relations and cooperation of the Republic of Uzbekistan with international organizations. After gaining independence, Uzbekistan's activities in the international arena and diplomatic policy have reached a new level.

Through cooperation with such influential organizations as the United Nations (UN), the Shanghai Cooperation Organization (SCO), the Organization of Islamic Cooperation (OIC), and the Organization for Security and Cooperation in Europe (OSCE), the country contributes to ensuring international stability and regional security. The article covers Uzbekistan's projects with international organizations on global issues, including ecology, human rights, economic cooperation, and education. In particular, international initiatives to restore the Aral Sea and efforts to strengthen cooperation between the countries of Central Asia play an important role.

**Keywords:** interorganizational cooperation, memorandum, strategic partnership, resource integration, efficiency, socio-economic development.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va shiddatli raqobat sharoitida hech bir tashkilot yakkalangan holda yuqori natijalarga erisha olmaydi. Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish va innovatsion g'oyalarni hayotga tatbiq etish uchun turli tuzilmalarning sa'y-harakatlarini birlashtirish ob'ektiv zaruriyatga aylandi. Shu sababli, **tashkilotlararo hamkorlik** samarali boshqaruvning strategik vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

**Mavzuning dolzarbligi** shundaki, resurslarning cheklanganligi va bozor talablarining o'zgaruvchanligi sharoitida tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro ishonchli aloqalarni o'rnatish mexanizmlarini takomillashtirish talab etiladi. Hamkorlik nafaqat iqtisodiy foyda keltiribgina qolmay, balki tajriba almashish, xavf-xatarlarni bo'lishish va yangi texnologiyalarni birgalikda o'zlashtirish imkonini beradi.

**Mavzuning maqsadi** — tashkilotlararo hamkorlikning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilish, uning samaradorligini oshiruvchi omillarni aniqlash hamda zamonaviy sheriklik modellarini ishlab chiqishdan iborat.

**Xalqaro tashkilotlar** – davlatlarning yoki hukumat qaramog'ida bo'lmagan milliy jamiyat (assotsiatsiya)larning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, fan-texnika, madaniyat va shu kabi sohalarda umumiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan uyushmasi; davlatlar o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlikning eng muhim shakllaridan biri. Xalqaro tashkilotlar XIX asrda vujudga keldi va ikkinchi jahon urushidan keyin ko'plab tuzila boshladi. Hozirgi kunda Xalqaro tashkilotlarning soni 4 mingdan ortiq bo'lib, 300 tasi hukumatlararo tashkilotdir. Xalqaro tashkilotlar o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bilan ajralib turadi. Jumladan, xalqaro tashkilotlarning tuzilmasi, asosiy maqsad va tashkilot faoliyatining yo'nalishlarini belgilab beruvchi ta'sis hujjati (ustavi) bo'ladi; bunday tashkilotlar doimiy yoki vaqti-vaqti bilan faoliyat yuritadi; ko'p tomonlama muzokaralar va muammolarni muhokama qilish ular faoliyatining asosiy usuli hisoblanadi; qarorlar ovoz berish yoki konsensus yo'li bilan qabul qilinadi; qarorlar, odatda, tavsiyaviy kuchga ega bo'ladi. Hukumatlararo Xalqaro tashkilotlar va nohukumat xalqaro tashkilotlar, shuningdek, umumjahon va mintaqaviy tashkilotlar farqlanadi.

Xalqaro tashkilotlar tashkilot, ittifoq, jamg'arma, bank, agentlik, markaz va shu kabi nomlar bilan ataladi. Bularning ko'p qismini AQSH moliyalashtiradi O'zbekiston Respublikasi 50 dan ortiq nufuzli xalqaro tashkilotlarning teng huquqli a'zosi.[1]

Xalqaro hamkorlik bo'limi bugungi kunda 9 ta xalqaro tashkilotlarning O'zbekistondagi vakolatxonalarini bilan (YXHT, USAID, BMTTD, GIZ, "Mintaqaviy muloqot" XNNT, YTTB, Germaniyaning Konrad Adenauer jamg'armasining O'zbekistondagi vakolatxonasi, UNICEF) hamkorlik qiladi hamda ular bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmoqda.

Jumladan, mazkur hamkorliklar natijasida YXHTning (OBSE) O'zbekistondagi loyiha koordinatori tomonidan Markazga 12 ta kompyuter jihozlari taqdim etildi hamda AQSH xalqaro taraqqiyot agentligining (USAID) Huquqiy islohotlar dasturi ko'magida Markaz o'qituvchilari va xodimlari uchun yuridik ingliz tili (Legal English) o'quv kurslari tashkil etildi.

Mazkur hamkorliklar natijasi o'laroq 2022-yil davomida Markazda yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish sohasiga yo'naltirilgan jami 36 marotaba xalqaro konferensiya, simpozium, seminar-trening va anjumanlar xalqaro hamkor tashkilotlar (USAID, YXHT, YTTB, "Mintaqaviy muloqot" XNNT, BMTTD, Konrad Adenauer jamg'armasi va GIZ) hamkorligida hamda xorijiy davlatlarning (Sloveniya, Buyuk Britaniya, Latviya, Irlandiya, Estoniya, Singapur, AQSh, Germaniya, Ozarbayjon, Rossiya) yetuk ekspertlari ishtirokida tashkil etildi.

Shuningdek, 2022-yil davomida 33 ta xorijiy o'quv muassasalarining yetakchi ilmiy-pedagogik xodimlari va ekspertlari Markazdagi o'quv jarayoniga xalqaro tashkilotlar (USAID, YXHT, YTTB, "Mintaqaviy muloqot" XNNT, BMTTD, Konrad Adenauer jamg'armasi va GIZ) hamkorligida, xususan Sloveniya, Buyuk Britaniya, Latviya, Irlandiya, Estoniya, Singapur, AQSh, Germaniya, Ozarbayjon, Rossiya va boshqa davlatlardan jalb qilindi.[2]

O'zbekiston yangi suveren, mustaqil davlat sifatida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga (BMT) 1992-yil 2-martda a'zo bo'ldi. Mamlakatimiz ushbu tarixiy voqeadan keyin o'tgan vaqt mobaynida BMT va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan turli sohalarida samarali hamkorlik qilib kelmoqda. Xavfsizlikka zamonaviy tahdid va tahlikalarga qarshi kurashish, Afg'onistonda barqarorlikka erishish va mamlakat iqtisodiyotini qayta tiklash, ommaviy qirg'in qurollarini tarqatmaslik, ekologik muammolarni hal qilish, xususan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va ilgari surish, turizmni rivojlantirish kabilar ko'p qirrali hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi. 1993-yildan buyon Toshkentda BMT vakolatxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Unga Rezident-koordinator rahbarlik qiladi.

Yevropa Ittifoqi (YI) bilan aloqalar. Yevropa Ittifoqi O'zbekiston bilan savdo, ta'lim, ekologiya va madaniyat sohalarida yaqin aloqalarni rivojlantirmoqda. "Barqaror rivojlanish uchun sheriklik va hamkorlik to'g'risida kelishuv" doirasida O'zbekiston YIning texnik yordam dasturlarida faol ishtirok etmoqda.[3] Shanxay Hamkorlik

Tashkiloti O'zbekiston ShHTning asosiy a'zolaridan biri hisoblanadi. Ushbu tashkilot doirasida mamlakat xavfsizlik, transport va energetika sohasida sheriklikni rivojlantirmoqda.[4] Tashkilotning 2004-yilgi Toshkent sammiti va keyinchalik Samarqandda o'tgan tadbirlarda muhim qarorlar qabul qilindi. Islom Hamkorlik Tashkiloti (IHT) O'zbekiston musulmon mamlakatlari bilan aloqalarni mustahkamlash maqsadida IHTning faol ishtirokchisiga aylandi. Madaniyat va ta'lim sohasida OIC SESRIC hamda IDB (Islom Taraqqiyot Banki) bilan hamkorlik qilmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi MDH doirasida O'zbekiston iqtisodiy integratsiya, transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha faol ish olib bormoqda. MDH iqtisodiy kengashi va boshqa tashkilotlar orqali hamkorlik qilinmoqda. Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT). O'zbekiston TDTda faol a'zo sifatida savdo, transport va madaniy hamkorlikni rivojlantirishda qatnashmoqda. Turkiy davlatlarning iqtisodiy va madaniy birligi uchun platforma yaratish O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Jahon banki va xalqaro moliyaviy institutlar: Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Osiyo taraqqiyot banki (OTB) bilan hamkorlik O'zbekiston iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish va islohotlarni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin tutmoqda. Energetika, infratuzilma va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish loyihalari ushbu tashkilotlar ishtirokida amalga oshirilmoqda.

Ekologiya va global masalalar bo'yicha hamkorlik. Oral dengizi inqirozini hal qilish va mintaqaviy ekologik muammolarni bartaraf etish borasida xalqaro tashkilotlar, jumladan, Global ekologik jamg'arma (GEF) va BMTning atrof-muhit dasturi (UNEP) bilan birgalikda ishlamoqda. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyati mintaqaviy va global darajada barqarorlik, taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Shu bilan birga, ushbu aloqalar mamlakatning milliy manfaatlarini ilgari surish va jahon hamjamiyatida faol rol o'ynashiga xizmat qilmoqda. Markaziy Osiyo mintaqaviy hamkorlik tashkilotlari: Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik: O'zbekiston qo'shni davlatlar bilan mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashda faol ishtirok etmoqda. Suv resurslarini boshqarish, transport aloqalarini yaxshilash va savdo-sotiqni rivojlantirish bo'yicha tashabbuslar ilgari surilmoqda.[5]

Xalqaro suv xo'jaligi tashkilotlari: O'zbekiston Amudaryo va Sirdaryo havzalarida suv resurslarini boshqarish bo'yicha qo'shni davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ishlamoqda. Xalqaro xavfsizlik va terrorizmga qarshi kurash: O'zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan terrorizm, ekstremizm, narkotrafik va transmilliy jinoyatlarga qarshi kurashda faol hamkorlik qilmoqda. Bu borada BMTning Xavfsizlik Kengashi, ShHT va boshqa xalqaro platformalarda faol ishtirok etmoqda. Mamlakat AQSh va Yevropa davlatlari bilan xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni rivojlantirishga intilmoqda. Madaniyat va ta'lim sohasidagi hamkorlik: O'zbekiston UNESCO bilan ta'lim, fan va madaniyatni rivojlantirish, tarixiy yodgorliklarni asrash borasida yaqin aloqalarni yo'lga qo'ygan. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi

obodalar UNESCOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. Ta'lim sohasida Erasmus+dasturi orqali Yevropa davlatlari bilan, shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa mintaqaviy tashkilotlar bilan o'quv dasturlari amalga oshirilmoqda.

**Energetika va transport hamkorligi:** Xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar ko'magida O'zbekiston energetika sektorida islohotlar o'tkazmoqda. Masalan, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro investorlar bilan ishlamoqda. Transport yo'nalishlarida xalqaro loyihalar, jumladan, "Bir makon, bir yo'l" tashabbusi doirasidagi infratuzilma loyihalari orqali Yevropa va Osiyoni bog'lashga qaratilgan ishlarda ishtirok etmoqda. Iqlim o'zgarishi va ekologik barqarorlik: O'zbekiston BMTning iqlim o'zgarishi bo'yicha Parij kelishuvini ratifikatsiya qilgan va uning maqsadlarini amalga oshirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqmoqda. Oral dengizi mintaqasidagi ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha xalqaro hamkorlik doirasida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Aral bo'yidagi hududni tiklash uchun Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va boshqa tashkilotlardan yordam olinmoqda.

**Sport va xalqaro tadbirlar:** Xalqaro sport tashkilotlari bilan hamkorlik natijasida O'zbekiston Olimpiya o'yinlari, Osiyo o'yinlari va boshqa musobaqalarda faol ishtirok etmoqda. 2023-yilda Samarqandda o'tgan xalqaro tadbirlar va forumlar mamlakatning jahon hamjamiyatidagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qildi. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari mamlakatning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, ichki va mintaqaviy muammolarni hal qilish, hamda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu hamkorlik nafaqat milliy darajada, balki global miqyosda ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tariqa, O'zbekiston mintaqaviy yetakchi va xalqaro sahnada faol ishtirokchi sifatida o'z rolini mustahkamlab bormoqda. [6]

**Xulosa.** Zamonaviy dunyoda birorta davlat yoki yirik tashkilot yakkalangan holda barqaror rivojlana olmaydi. Xalqaro hamkorlik — bu shunchaki siyosiy muloqot emas, balki global xavfsizlik va iqtisodiy o'sishning kafolatidir. Xulosaning asosiy ustunlari: Global muammolarga jamoaviy yechim: Iqlim o'zgarishi, pandemiya va transchegaraviy jinoyatchilik kabi tahdidlarni faqat xalqaro kuchlarni birlashtirish orqali jilovlash mumkin. Iqtisodiy integratsiya: Xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, XVJ) va savdo tashkilotlari (JST) bilan hamkorlik investitsiyalar oqimini va texnologik yangilanishni ta'minlaydi. Standartlashtirish: Xalqaro hamkorlik tufayli ta'lim, huquq va texnika sohalari yagona jahon standartlariga yaqinlashadi, bu esa mutaxassislar va tovarlarning erkin harakatlanishiga yo'l ochadi. Madaniy muloqot: Tashkilotlararo aloqalar xalqlar o'rtasida ishonchni mustahkamlaydi va nizolarning oldini oluvchi "yumshoq kuch" vazifasini o'taydi. O'zbekiston uchun xalqaro hamkorlik — milliy manfaatlarini jahon maydonida himoya qilish va mamlakatni modernizatsiya qilishning eng qisqa va samarali yo'lidir.

Tashkilotlararo hamkorlikni sotsiologik tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, zamonaviy murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muhitda alohida olingan tashkilotning

yakkalangan holda rivojlanishi imkonsizdir. Hamkorlik — bu shunchaki resurslar almashinuvi emas, balki ijtimoiy kapitalni shakllantirish va umumiy qadriyatlar tizimini yaratish jarayonidir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi muhim xulosalarga kelindi: Ijtimoiy tarmoqlar effekti: Tashkilotlararo aloqalar "ishonch" va "o'zaro manfaatdorlik" tamoyillari asosida qurilganda, tizimning dinamik barqarorligi ortadi. Bu esa tashqi inqirozlarga qarshi jamoaviy immunitetni shakllantiradi. Sinergiya va innovatsiya: Hamkorlikning dinamik tabiati tashkilotlar ichidagi byurokratik (statik) to'siqlarni yumshatadi, natijada bilim va texnologiyalar transferi tezlashadi. Bu esa ijtimoiy innovatsiyalarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Tashkiliy madaniyatlar integratsiyasi: Muvaffaqiyatli hamkorlikning kaliti — turli tashkiliy tuzilmalarning sotsiomadaniy moslashuvidir. Faqatgina rasmiy shartnomalar (statika) emas, balki norasmiy kommunikatsiyalar va umumiy missiya (dinamika) hamkorlikning uzoq muddatli samaradorligini ta'minlaydi.

Yakuniy fikr: Tashkilotlararo hamkorlik — bu zamonaviy jamiyatning "yashab qolish strategiyasi" bo'lib, u ijtimoiy tizimlarning yanada ochiq, moslashuvchan va samarali bo'lishiga xizmat qiladi. Maqolada ilgari surilgan g'oyalar tashkilotlar sotsiologiyasida ijtimoiy integratsiya mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. М.Рахимов, Ш. Рахматуллаев, Р.Турсунова, Р. Назаров " Очерки новейшей истории Узбекистана", Т. "Адабиёт учкунлари" 2016. С. 311.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. 7-noyabr 2014-yilda asl nusxadan
3. Inatov M.N., Xolnazarova L.S., Maxammadiyeva S.I. "O'zbekistonning eng yangi tarixi" Toshkent, ToshDTU.2021.
4. Jo'rayev.N. "Mustaqil O'zbekiston tarixi". G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2013.
5. Sabirov. A "O'zbekiston tarixi" Toshkent: Akademiya 2013.
6. Abdullayev R., Rajabov Q., Rahimov M. "O'zbekistonning tarixi" - Toshkent: O'zbekiston, 2019.